



NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 21-yanvar

13-5-70-Q/26

Konimex tuman hokimiligi

Konimex tuman hokimligi boshqaruv apparatining tuzilmasiga o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-189-sonli, 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-sonli farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-dekabrda "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2691-sonli hamda 2025-yil 22-dekabrda "Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-387-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 6, 21¹ -moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Konimex tuman hokimligi boshqaruv apparatining tuzilmasiga quyidagicha o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Konimex tuman hokimligi boshqaruv apparati Tashkiliy tuzilmasidagi "Hokimning qurulish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari" lavozimi "Hokimning qurulish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari - tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i" deb yuritilsin.

3. Konimex tuman hokimining sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi lavozimi joriy etilsin.

4. Tuman hokimligi boshqaruv apparati namunaviy tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman hokimining 2025-yil 21-yanvardagi 6-5-70-Q/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (A.Pirniyazov) mazkur qarorga muvofiq tuman hokimligi xodimlari shtat jadvaliga belgilangan tartibda o‘zgartirish kiritsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari v.b. O.Umarov zimmasiga yuklansin.

Konimex tumani hokimi




Ro‘ziyev R.N

Konimex tumani hokimining
2026-yil 21-yanvardagi
13-5-70-Q/26-son qaroriga
1-ilova

Konimex tumani hokimligi boshqaruv apparatining

TUZILMASI



Tuman hokimligi apparati shtat birliklari soniga qo'shilmaydi.

1. Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni - 21 nafar;
2. * - Tuman hokimligi apparati shtat birliklari soniga qo'shilmaydi;
3. Mahallalarga birlashtirilgan hokim yordamchilari soni - 15 nafar;

Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni – 21 birlik